## Geografiya

**1.** Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yozgan geografik asar nomini aniqlang.

A) *“Mamlakatlarning alifbo tartibidagi ro‘yxati”*
B) *“Surat-al-arz”* C) *“Iqlimlar kitobi"*
D) *“Geografika”*

**2.** Assal ko‘lining geografik o‘rnini belgilang.

A) *Ajal vodiysi* B) *Afar botig‘i*
C) *To‘rfon botig‘i* D) *Kattara botig‘i*

**3.** Qaysi shaharlarda charm ishlab chiqariladi?

A) *Toshkent, Samarqand*
B) *Namangan, Urganch*
C) *Andijon, Yangiyo‘l*
D) *Marg‘ilon, Shahrisabz*

**4.** Quyidagi grafik va jadvaldan foydalanib soat $13^{\underline{00}}$ da havoning mutlaq namligi qancha bo‘lganini aniqlang.




| Havo harorati (°C) | 1m³ havo o‘zida tutib tura oladigan eng ko‘p suv bug‘i (g) |
|---|---|
| 0 | 5 |
| 10 | 9 |
| 20 | 17 |
| 30 | 30 |

A) *24 g/m³* B) *27 g/m³* C) *18 g/m³*
D) *21 g/m³*

**5.** Demografik inqiroz deganda nima nazarda tutiladi?

A) *o‘lim darajasining pastligi*
B) *tabiiy ko‘payishning manfiy holati*
C) *o‘lim va tug‘ilish o‘rtasidagi farq*
D) *aholining migratsiya jarayoni*

**6.** Quyidagi ma’lumotlardan moslashtirilgan javobni toping.
1) paleozoy; 2) kaynozoy; 3) mezozoy.
a) hozirgi keksa tog‘lar hosil bo‘lgan; b) tabiat zonalari paydo bo‘lgan (shakllangan);
c) bahaybat dinozavrlar paydo bo‘lgan; d) suv o‘tlari paydo bo‘lgan.

A) *1-c, 2-a, 3-b* B) *1-a, 2-b, 3-c*
C) *1-d, 2-a, 3-c* D) *1-b, 2-a, c*

**7.** Quyidagi chizmada 1 va 2 raqamlar bilan belgilangan kataklarga mos keladigan to‘g‘ri javobni toping.




A) *1–Karisimbi; 2–Ural*
B) *1–Tubkal; 2–Katta Suvayrig‘ich tizmasi*
C) *1–Mak-Kinli; 2–Kavkaz*
D) *1–Ras-Dashen; 2–Alp*

**8.** O‘rta Osiyoning qaysi hududi, asosan, subtropik iqlim mintaqasida joylashgan?

A) *Ustyurt platosi*
B) *Hisor-Oloy tog‘lari*
C) *Ugom-Piskom tog‘lari*
D) *Turkman-Xuroson tog‘lari*

**9.** "Fiat" avtomobil konserni qaysi davlatga tegishli?

A) *Italiya* B) *Shvetsiya* C) *Daniya*
D) *Kanada*

**10.** Qirg‘iziston Respublikasida joylashgan oltin konini toping.

A) *Qazali* B) *Jitiqara* C) *Esenguli*
D) *Kumtor*

**11.** *Yozda O‘zbekiston hududi, xususan, uning tekislik qismi juda isib ketishi oqibatida termik o‘choq vujudga keladi. Natijada, havo o‘ta qizib, siyraklashib, . . . (I) bosimli mahalliy kontinental Turon tropik havosi shakllanadi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun shimoli-g‘arbdan va g‘arbdan salqin havo massasi esadi. Havo qizib ketganligi tufayli bu havo massalari yog‘in . . . (II).*
Matndagi nuqtalar o‘rniga quyidagi ma’lumotlardan mos keladigan javobni toping.
1) yuqori; 2) past; 3) keltirmaydi; 4) keltiradi.

A) *I-1; II-3* B) *I-2; II-4* C) *I-1; II-4* D) *I-2; II-3*

**12.** Quyosh va Oyning tortish kuchi ta’sirida dunyo okeani suvlarida qanday hodisa ro‘y beradi?

A) *qalqish* B) *siklon* C) *antisiklon* D) *sunami*

**13.** Eyler-Venn diagrammasi bo‘yicha davlatlarning iqtisodiyotiga xos xususiyatlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.




a) asosiy qishloq xo‘jalik ekinlari qatoriga sholi, tabiiy kauchuk, kokos palmasi, tamaki kiradi;
b) iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra Osiyoning yangi industrial davlatlari guruhiga kiradi;
c) sanoatining yetakchi tarmoqlariga yoqilg‘i, kimyo, yengil sanoat kiradi.

A) *I-b, II-a, III-c* B) *I-c, II-a, III-b* C) *I-c, II-b, III-a* D) *I-b, II-c, III-a*

**14.** Agar ekologik muammolar kichik ko‘lamdagi hududlar doirasida ro‘y bersa, bu hududiy ko‘lami jihatdan qanday ekologik muammo hisoblanadi?

A) *subregional* B) *mintaqaviy* C) *sayyoraviy* D) *lokal*

**15.** O‘rta Osiyo o‘lkasining janubiy chegarasi Hindikush, Safedko‘h, Nishopur tog‘ tizmalari suvayirg‘ichi bo‘ylab o‘tgach, qaysi tabiiy geografik obyekt bilan tutashadi?

A) *Emba daryosi qirg‘og‘i*

B) *Murg‘ob daryosi qirg‘og‘i*

C) *Amudaryo qirg‘og‘i*

D) *Kaspiy dengiz qirg‘og‘i*

**16.** Quyidagilardan O‘rta Osiyo iqlimida ko‘zga yaqqol tashlanadigan asosiy xususiyatlarni aniqlang.

A) *qishda sovuq havo massalarining, janubdan iliq va nam havoning kirib kelishi*

B) *iqlimning keskin kontinentalligi, quyoshli kunlarning nihoyatda ko‘pligi*

C) *mo‘tadil iqlim tarkib topganligi, yog‘in miqdorining ko‘pligi*

D) *yozda siklonlar faoliyatining kuchli bo‘lishi, qishda haroratning yuqori bo‘lishi*

**17.** Chirchiq-Ohangaron okrugi yer yuzasining tarkib topishi qaysi eradan boshlangan?

A) *kaynazoy* B) *arxey* C) *mezozoy* D) *paleozoy*

**18.** Grafikdagi ma’lumotlar asosida tug‘ilish va immigratsiya hisobiga aholi soni ko‘payishining eng past ko‘rsatkichi qaysi yilda qayd etilganini aniqlang.




A) *1990* B) *2015* C) *1995* D) *2010*

**19.** Ushbu chizmadan foydalanib shamol yo‘nalishini aniqlang. (760 va 768 sonlari shu nuqtadagi havo bosimini ifodalaydi.)




A) *janubi-sharqdan shimoli-g‘arbga*

B) *janubi-g‘arbdan shimoli-sharqqa*

C) *shimoli-sharqdan shimoli-g‘arbga*

D) *shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga*

**20.** Quyidagi yozuvsiz xaritada Buyuk tekisliklar, Kordilyera tog‘lari, Florida yarimoroli qaysi raqamlar bilan belgilanganini mos ravishda toping.




A) *1, 3, 5* B) *2, 4, 7* C) *3, 5, 8* D) *4, 6, 9*